

**O‘ZBEKISTON HUDUDLARIDA INVESTITSION FAOLLIK, SALOHİYAT VA
RISKLARNI KOMPLEKS BAHOLASH METODIKASI****L.N.Jiyanov- i.f.f.d,(PhD)***Buxoro davlat universiteti Buxgalteriya hisobi va
statistika kafedrası o`qituvchisi*

Annotatsiya: *ushbu ilmiy maqolada O‘zbekiston Respublikasi hududlarida investitsion faollik, investitsion salohiyat va investitsion risklarni kompleks baholashning nazariy-uslubiy asoslari yoritilgan. Tadqiqotda hududlarning investitsiya jozibadorligiga ta’sir etuvchi iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va institutsional omillar tizimli ravishda tahlil qilingan. Maqolada investitsiya faolligi koeffitsiyenti, investitsiya o’sish sur’ati, investitsion salohiyatning integral ko’rsatkichi va investitsion jozibadorlik indeksidan foydalanish imkoniyatlari ochib berilgan. Hududlar kesimidagi amaliy tahlil orqali kuchli va zaif tomonlar aniqlangan. Tadqiqot natijalari hududiy investitsion siyosatni takomillashtirish, resurslarni samarali taqsimlash va risklarni kamaytirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *investitsion faollik, investitsion salohiyat, investitsion risk, hududiy rivojlanish, investitsion jozibadorlik, integral indeks, AHP usuli.*

Bugungi kunda hududiy iqtisodiy rivojlanishni ta’minlashda investitsiyalar hal qiluvchi omillardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Milliy iqtisodiyotning barqaror o‘rinishini ta’minlash, yangi ish o‘rinlari yaratish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, eksport salohiyatini oshirish hamda zamonaviy infratuzilmani shakllantirishda investitsiyalarning o‘rni beqiyosdir.

O‘zbekiston hududlari tabiiy resurslari, demografik salohiyati, mehnat bozori imkoniyatlari, infratuzilma ta’minoti, ishlab chiqarish quvvatlari va geografik joylashuvi bilan bir-biridan farq qiladi. Ushbu tafovutlar hududlarning investitsiyalarni jalb qilish va ularni samarali o‘zlashtirish qobiliyatiga bevosita ta’sir etadi.

Shu sababli investitsion faollik, investitsion salohiyat va investitsion risklarni birgalikda o‘rganish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb masaladir. Kompleks baholash yondashuvi hududlar kesimidagi real holatni chuqurroq tahlil qilish hamda investitsion siyosatni hududlar ehtiyojiga moslashtirish imkonini beradi.

Maqolaning maqsadi O‘zbekiston hududlarida investitsion faollik, salohiyat va risklarni kompleks baholashning uslubiy asoslarini ochib berish, amaliy misollar orqali ularning hududiy tafovutlarini ko‘rsatish va investitsion siyosatni takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Hududiy investitsion rivojlanishni baholash masalasi iqtisodiy adabiyotlarda ko'p qirrali tadqiqot yo'nalishi sifatida shakllangan. Mazkur yo'nalishda investitsion jozibadorlikka ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, investitsiya oqimlarining samaradorligini o'lchash va risklarni baholash bo'yicha turli ilmiy qarashlar mavjud.

Adabiyotlarda investitsion faollik ko'pincha investitsiyalar hajmi va ularning hududiy yalpi mahsulotga nisbati orqali o'lchanadi. Biroq so'nggi yondashuvlarda bunday tahlilga qo'shimcha ravishda institutsional muhit, infratuzilma sifati, mehnat resurslari, ekologik holat va hududiy boshqaruv sifati kabi omillar ham kiritilmoqda.

Risklarni baholash bo'yicha mavjud ilmiy ishlarda siyosiy barqarorlik, valyuta kursi noaniqligi, inflatsion bosim, tabiiy ofatlar va ekologik tahdidlar investorlar qaroriga sezilarli ta'sir ko'rsatishi ta'kidlanadi. Shu bilan birga, investitsion salohiyatni aniqlashda faqat resurs bazasi emas, balki inson kapitali va xizmatlar infratuzilmasining roli ham yuqori baholanadi.

Ko'p mezonli baholash usullari, jumladan AHP metodi, hududiy investitsion jozibadorlikni aniqlashda samarali vosita sifatida e'tirof etiladi. Ushbu usul yordamida turli omillarning og'irlik darajasi aniqlanadi va hududlar kesimida qiyosiy baholash amalga oshiriladi.

Shunday qilib, mavjud adabiyotlar hududiy investitsion baholashning kompleks yondashuvini qo'llash zarurligini ko'rsatadi. Ushbu maqola ana shu yondashuvni O'zbekiston hududlari misolida tizimlashtirishga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasida "Harakatlar strategiyasi", "Taraqqiyot strategiyasi" yoki "O'zbekiston-2030 to'g'risida"gi konseptual strategiyalarni amalga oshirish jarayonida hududlarga sarmoyalarni jalb qilish va bu jarayonni qo'llab-quvvatlash bo'yicha amaliy tadbirlar olib borilmoqda. Hududlar o'rtasidagi iqtisodiy, ijtimoiy farqlarni bartaraf qilish maqsadida "Erkin iqtisodiy hududlar", "Turizm qishloqlari", agropolis va klasterlar, texnologik parklarning tashkil qilinishi investitsion faollikni oshirish jarayonini jadallashtirmoqda. Iqtisodiy tahlil qonuniyatlari doirasida investitsion faollik, salohiyat va xaflarni baholash uchun turli xil metodologik yondashuvlar va formulalardan bevosita foydalaniladi. Ulardan O'zbekiston respublikasi iqtisodiy hududlarida investitsion jarayonlarni baholash uchun ba'zi asosiy formulalar va ko'rsatkichlar keltiramiz. Investitsiya faolligi ko'rsatkichi hududning investitsiyalarga bo'lgan qiziqishini, intilishini va iqtisodiy faolligini o'lchaydigan koeffitsiyent hisoblanadi. Bu koeffitsiyent quyidagicha aniqlanadi.

$$IFK = \frac{I_t}{GDP_t}$$

Bunda I_t -hududga kiritilgan investitsiyalar hajmi (so'm yoki dollar).

GDP_t -Hududning yalpi ichki mahsuloti (YIM).

Bu formula hududning investitsiyalarga nisbatan iqtisodiy salohiyatini va jozibadorligini o'lchashga yordam beradi. Misol uchun, O'zbekiston Respublikasining hududlari bo'yicha 2025 yildagi bu koeffitsiyent natijasi quyidagicha hosil bo'lgan

O'zbekiston respublikasi hududlarining sarmoyalarni jalb qilish va o'zlashtirishga bo'yicha faollik darajasi

O'zbekiston Respublikasining hududlari	Investitsiyalar hajmi(mlrd,so'm)	Yalpi hududiy mahsulot hajmi (yillik) (mlrd.so'm)	I.F.K.
Qoraqalpog'iston Respublikasi	20530,9	45658,5	0,450
Andijon viloyati	28132,2	90522,1	0,311
Buxoro viloyati	48961,2	71560,4	0,684
Jizzax viloyati	23058,6	43057,9	0,536
Qashqadaryo viloyati	32996,9	80658,3	0,409
Navoiy viloyati	34024,5	117297,8	0,290
Namangan viloyati	53340,5	68915,7	0,774
Samarqand viloyati	29652,5	99866,1	0,297
Surxondaryo viloyati	15277,5	54354,1	0,281
Sirdaryo viloyati	10942,8	28003,3	0,391
Toshkent viloyati	70529,8	146385,2	0,482
Farg'ona viloyati	22383,5	91333	0,245
Xorazm viloyati	14795,3	51261	0,289
Toshkent shahri	88330,6	281147,4	0,314

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston hududlarida investitsion faollik darajasi bir xil emas. 2025-yil bo'yicha investitsiya faolligi koeffitsiyentining Namangan viloyatida eng yuqori darajada qayd etilgani ushbu hududda investitsiya jalb qilish va uni iqtisodiy aylanishga kiritish jarayoni nisbatan faol kechayotganini ko'rsatadi. Buxoro va Jizzax viloyatlarida ham ko'rsatkichlarning yuqoriligi hududiy faollikning sezilarli ekanini bildiradi.

Toshkent shahri va Toshkent viloyati investitsion jozibadorlik nuqtai nazaridan yetakchi hududlar sifatida namoyon bo'ladi. Buning asosiy sabablari sifatida bozor infratuzilmasining rivojlanganligi, transport-logistika tarmoqlarining qulayligi, xizmat ko'rsatish sohasi va institutsional muhitning nisbatan mustahkamligi ko'rsatiladi.

Samarqand va Buxoro viloyatlarida turizm, xizmat ko'rsatish va tarixiy-madaniy resurslar investitsion jozibadorlikni oshiruvchi muhim omillardan biridir. Farg'ona vodiysi hududlarida esa mehnatga layoqatli aholining ko'pligi, ichki bozor salohiyati va ishlab chiqarish imkoniyatlari hududiy salohiyatning asosiy tayanchlari hisoblanadi.

Qashqadaryo, Navoiy, Jizzax va Surxondaryo viloyatlarida yer osti boyliklari, energetika va sanoat rivoji uchun resurs bazasining mavjudligi yirik investitsion loyihalarni amalga oshirish imkonini beradi. Shu bilan birga bunday hududlarda yuqori malakali kadrlar, logistika tarmoqlari va ekologik barqarorlik masalalari muhim ahamiyat kasb etadi.

Risklar tahlili shuni ko'rsatadiki, ayrim hududlarda infratuzilma yetarli darajada rivojlanmaganligi, suv taqchilligi, sho'rlanish, energetika ta'minoti yoki transport tarmoqlaridagi muammolar sarmoyadorlar uchun xavf omili bo'lib qolmoqda. Ayniqsa, ekologik tahdidlar uzoq muddatli investitsiya loyihalarining samaradorligiga salbiy ta'sir qilishi mumkin.

AHP yondashuvi asosida iqtisodiy, ekologik, institutsional va ijtimoiy omillarning o'zaro nisbatini baholash hududiy investitsion muhitni chuqurroq anglash imkonini beradi. Bu esa faqat statistik ko'rsatkichlarga tayangan oddiy tahlildan ko'ra ancha samarali va izchil natijalar beradi.

O'zbekiston hududlarida investitsion faollik, salohiyat va risklarni kompleks baholash hududiy iqtisodiyotning real holatini chuqur anglash imkonini beradi. Mazkur yondashuv investitsiyalarni jalb qilish va ularni samarali boshqarishda hududlar kesimidagi farqlarni aniq ko'rsatib beradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, investitsion siyosatni yagona standart asosida yuritish yetarli emas. Har bir hududning tabiiy resurslari, mehnat salohiyati, infratuzilma darajasi va ekologik holatidan kelib chiqib differensial yondashuv zarur.

Kompleks baholash usuli hududiy investitsion jozibadorlikni oshirish, risklarni kamaytirish va iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish bo'yicha amaliy qarorlar qabul qilish uchun muhim metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

Hududlar bo'yicha investitsion siyosatni differensial tarzda shakllantirish va har bir hududning ustuvor tarmoqlariga mos investitsion paketlar ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Transport, logistika, suv ta'minoti va energiya infratuzilmasi sust rivojlangan hududlarda davlat investitsiyalari va davlat-xususiy sheriklik asosidagi loyihalarni ko'paytirish zarur.

Ekologik xavfi yuqori hududlarda suvni tejovchi texnologiyalar, yashil energetika va resurslardan oqilona foydalanish mexanizmlarini keng joriy etish lozim.

Hududiy investitsion reytingni shakllantirishda AHP kabi ko'p mezonli baholash usullaridan muntazam foydalanish boshqaruv qarorlarining sifatini oshiradi.

Malakali kadrlar tayyorlash, investorlar uchun xizmat ko'rsatish tizimini soddalashtirish va ruxsat berish jarayonlarini optimallashtirish investitsion muhitni yanada yaxshilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 15-oktabrdagi 606-son “Respublika hududlarida innovatsiya va investitsiya faoliyatini jadallashtirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 14-yanvardagi 16-son “O‘zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturini shakllantirish tizimini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.
3. Bekmurodov A.Sh., Karrieva Ya.K., Ne‘matov I.U., Nabiev D.H., Kattaev N.T. Xorijiy investitsiyalar. O‘quv qo‘llanma. –T.: Iqtisodiyot, 2010.-166
4. Boyan Tomov. Investments and regions.Brand mediya. Sofiya. 2017. 122 page.
5. Isomov B.S.Ekonomicheskii mexanizm investirovaniya v usloviyax formirovaniya rinochnix otnosheniy. Buxara xamd print. 2021.160 c.